



TEXNOLOGIYANI O'RTA TALIM MAKTABLARIDA RIVOJLANTIRISH USULLARI

Hamdamova Nozima Mukimova

Falsafa fanlari doktori(PhD), dotsent

Hamidov Ruslan Asliddinovich

Buxoro davlat pedagogika instituti

“Texnologik ta’lim” yo’nalishi 2-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10098731>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 01-November 2023 yil

Ma’qullandi: 05- November 2023 yil

Nashr qilindi: 10-November 2023 yil

KEY WORDS

konstruktsiya, ta’lim, texnologiya, dizayn, inovatsiya, maktab, muammoli ta’lim, qobiliyat, inovatsion texnologiyalar

ABSTRACT

Ushbu maqola o’qituvchilarning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish masalasida faol sanalgan yangicha ta’lim texnologiya yani shakl, metod va vositalariga alohida e’tibor qaratgan holda, ularning amaliy jarayonlarda tutgan o’rni va ahamiyati haqida fikr-mulohaza yuritadi. Bundan tashqari ma’lum bir metodlar bu borada qanchalik darajaga ega ekani haqida qisqacha ma’lumot beradi.

Ta’lim texnologiyasini loyihalash va o’zaro aloqada bo’lishda turli [pedagogik](#) istiqbollar yoki o’rganish nazariyalari ko’rib chiqilishi mumkin. Elektron ta’lim nazariyasi ushbu yondashuvlarni o’rganadi. Ushbu nazariy istiqbollar uchta asosiy nazariy maktab yoki falsafiy doiralarga birlashtirilgan: [bixeviorizm](#), kognitivizm va konstruktiviz.. Umumiy o’rta ta’lim maktablarida mehnat ta’limining qo’yilishi va uning tarixiy taraqqiyoti..Maktab islohatida [texnologiya fani vazifalari](#), o’rni va uni isloh qilishning zaruriyati hamda ustuvor yo’nalishlari.

“Qaysi yurtda bilim, ilm, va albatta, yuksak ma’naviyat qadrlansa, shu mamlakat barqaror rivojlanishi, xalqi farovon hayot kechirishi tarixda ko’p bor isbotlangan”-Sh.M.Mirziyoyev.

1. O’zbekiston Respublikasi Davlat Mustaqilligiga erishib, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning o’ziga xos yo’lini tanlashi kadrlar tayyorlash tuzilmasi va mazmunini qayta tashkil etishni zarur qilib qo’ydi va qator chora tadbirlarni ko’rdi yangi tahrirdagi «Ta’lim to’g’risida»gi qonunni joriy etilishi (2020 y) yangi o’quv rejalari, dasturlari, darsliklarni joriy etishni, zamonaviy didaktik ta’limotni ishlab chiqishni; o’quv yurtlarini attestatsiyadan o’tkazishni, yangi tipdagi ta’lim muassasalarni tashkil etishni taqozo qildi.

Dastur, har tomonlama kamol topgan, jamiyatda turmushga moslashgan, ta’lim va kasb hunar dasturini ongli ravishda tanlash va keyinchalik puxta o’zlashtirish [uchun ijtimoiy-siyosiy](#), xuquqiy, psixologik-pedagogik va boshqa tarzdagi sharoitlarni yaratishni, jamiyat, davlat va oila oldida o’z javobgarligini his etadigan yoshlarni nazarda tutadi.. Umumiy o’rta ta’lim maktablarining o’quv rejasida texnologiya ta’limi o’quv faniga 1-4-sinflarda haftasiga 1 soatdan, 5-7-sinflarda haftasiga 2 soatdan va 8-9-sinflarda haftasiga 1 soatdan, hammasi bo’lib 408 soat vaqt ajratilgan.

O'quvchilarni mehnatga tayyorlash jaryonida kasb-hunarga yo'naltirishni yanada kuchaytirish, ularni zamonaviy ishlab chiqarish asoslari, yog'ochga, metallga va gazlamaga ishlov berish texnologiyasi, pazandachilik asoslari, qishloq xo'jalik asoslari, badiiy mehnat texnologiyasi va mashina elementlari yo'nalishlari bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni egallashlari ko'zda tutilgan.

5-7-sinflarda o'quvchilarning ijtimoiy-estetik didi va dunyoqarashini kengaytiradigan, oilaviy hayot va turmushda kerak bo'ladigan yuqorida ko'rsatilgan o'quv kurslari o'quvchilarda milliy madaniyat va an'analarga mehr-muhabbat uyrotadi. 8-9-sinflarda kasb-hunarlariga yo'naltirish kursi ta'lim oluvchilarning ijtimoiy dunyoqarashini kengaytiradi, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlarini ongli ravishda tanlashlariga ko'maklashadi.

O'zbekistonda izchil rivojlanishning asosiy omili sifatida ilm-fanni taraqqiy ettirishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda uzluksiz ta'lim tizimida turli sohalarda raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash, ularning yuksak bilim, ko'nikma va malakalarni egallashlariga shart-sharoitlar yaratish, ishlab chiqarish jarayonida yetuk malakali mutaxassislar faoliyatini tashkil etish bo'yicha qo'ygan ijtimoiy buyurtmasini bajarishda texnologiya (mehnat ta'limi) fani jarayonini tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Davlat ahamiyatiga molik ushbu vazifani bajarish uchun ta'lim-tarbiya jarayonda o'qituvchilarning o'z [kasbiy bilim](#), ko'nikma va malakalarini, kasbiy mahoratini takomillashtirishni hamda dinamik ravishda rivojlanib borayotgan pedagogik jarayon talablari darajasida pedagogika, psixologiya, metodika fanlari yutuqlari, zamonaviy texnika va ilg'or texnologiyalar, ishlab chiqarish va bozor iqtisodiyoti munosabatlari bo'yicha mukammal bilimlar, ko'nikmalarni egallashni taqozo etadi. Shu munosabat bilan, texnologiya fani o'qituvchisining bilim, ko'nikma va malakalari ko'lami va sifati, uning ta'lim-tarbiya jarayonini umumiy o'rta ta'lim DTS talablari asosida tashkil etish va o'tkazish bo'yicha erishgan yutuqlari va yo'l qo'ygan kamchiliklari, kasbiy mahorati kabi murakkab va ko'p qirrali faoliyatini takomillashtirish jarayonining didaktik shart-sharoitlarini aniqlash, nazorat maqsadiga muvofiq ravishda uning shakl, tur, usul va vositalarini optimal tanlash asosida nazorat o'tkazish [metodikasini ishlab chiqish](#), uning mazmunini boyitish, bu sohada mamlakatimiz miqyosida amalga oshirilayotgan tashkiliy ishlarni tahlili bu borada amalga oshirilayotgan barcha tadbirlarni ilmiy-uslubiy asnosida tashkil etilishini talab qilmoqda.

Bu esa o'quvchilarning umumiy o'rta ta'lim maktablaridan texnik-texnologik ko'nikmalarini shakllantirishga e'tibor berilmayotganligini ko'rsatishimiz mumkin. Ushbu ko'nikmalar asosan texnologiya fani darslarida shakllantirilishini xisobga olsak, ushbu fanga e'tiborni kuchaytirish davr talabi ekanligi yaqqol namoyon bo'ladi. Aynan texnologiya fanida o'quvchilarning ham intellektual ham jismoniy bilim, ko'nikma va malakalari uyg'unlashgan xolda shakllanishi hamda texnikaga oid mehnat qilishning sensor ko'nikmalarining rivojlanishi, shuningdek kasblar olami, kasb tanlashdagi qiyinchiliklar va nomutanosibliklar, kasb tanlashda e'tiborga olinadigan omillar xaqidagi ma'lumotlar fanning asosiy maqsadi sifatida beriladi. Demak, texnologiya faniga e'tibor berilishi natijasida nafaqat texnikaga oid kollejlarga balki yoshlarning o'z kasblarini ongli, barcha jixatlarini xisobga olgan holda tanlashlariga erishiladi. To'g'ri kasb tanlagan o'quvchilarning qiziqishini oshirish ya'ni ta'lim sifati va samaradorligini yuksaltirish natijasida yetuk, jahon talablariga javob beradigan mutaxassislar tayyorlashga zamin yaratgan bo'lamiz. Shuni aytish mumkinki, texnologiya fani

darslarini tashkil etishda zamonaviy ta'lim texnologiyalari va vositalaridan maqsadga muvofiq foydalanish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish natijasida o'quvchilarda fanga bo'lgan qiziqishlari ortishi, amaliy mashg'ulotlarda mehnat ob'ektlarini bajarish bo'yicha aniq tasavvurlarga ega bo'lishi, mehnat operatsiyalarini bajarish bo'yicha [chuqur bilim](#), ko'nikma va malakalarni hosil qilishida keng imkoniyatlar ochadi.

2. Texnologiya ta'limi fanining uzluksiz ta'lim tizimidagi o'rni va roli.

Hozirgi kunda dunyo bo'yicha rivojlangan davlatlar agrar ishlab chiqarishdan sanoat ishlab chiqarishga ya'ni yangi texnika va texnologiyalarga asoslangan avtomatik-mexanizatsiyalashgan sanoat ishlab chiqarish davlatiga o'tib bormoqda. Ishlab chiqarishni rivojlantirishda mutaxassislarning texnikaviy salohiyati muhim o'rin tutadi. Ishlab chiqarish sohasida faoliyat yuritadigan mutaxassislarning boshlang'ich ko'nikmalari aynan umumiy o'rta ta'lim maktablarida texnologiya fani darslarida tarkib topadi.

"Texnologiya" materiallar yoki yarim fabrikatlarni olish, ishlov berish va qayta ishlash usullarini ishlab chiquvchi va takomillashtiruvchi ilmiy fandır.

"Texnologiya" - yunoncha ikki so'zdan - "texnos" (techne) - mahorat, san'at va "logos" (logos) - fan, ta'limot so'zlaridan tashkil to'gan.

Tarixiy manbalarga ko'ra, "Texnologiya" fani ham qadimgi Yunonistonda 'aydo bo'lgan. Ushbu davrda, bu hunarmandning buyumlarni tayyorlash san'atiga, ustoz rahbarligi ostida (mashqlar tufayli) o'zining tirishqoqligi va tabiiy iqtidori orqali erishishini anglatgan.

Hunar o'rganish individual tarzda amalga oshiriladi edi. Ko'gina hollarda, hunar sirlari, faqat avloddan avlodga, oilaviy qarindosh urug'larga o'rgatilar edi. Avloddagi uzilishlar, ma'lum bir kasb sirlarini yo'qolishiga olib kelgan hollar ham mavjud. Misol tariqasida, qadim Sharqdagi machit madrasalarning tashqi va ichki devorlar, gumbazlaridagi naqshlar tabiiy bo'yoqlarining tayyorlanish sirlari yo'qolib ketganini keltirish mumkin. Bu bo'yoqlar hanuzgacha odamlarni o'zining tabiiyligi, chiroyi, ranglari jilosi, takrorsizligi, o'zidan [nur sochib turishi](#), uzoqqa chidamliligi bilan maftun etib kelmoqda.

"Texnologiya"ning fan sifatida vujudga kelishiga - XVII asrda, sanoat ishlab chiqarishini paydo bo'lishi metallurgiya, mashinasozlik, jumladan sanoat jihozlari, paroxod, parovoz, o'q otuvchi qurollarni ishlab chiqarish jadal rivojlana boshlanishi sabab bo'ldi.

Bunday murakkab va mehnattalab mashina va jihozlarni ishlab chiqarishni, faqat texnologik jarayoni aniq ishlab chiqilgan texnologik hujjatlar asosida tashkil etish mumkin edi. Ushbu hujjatlarda - xom ashyo, materiallar, yarim fabrikat va mahsulotlarni olish, ishlov berish, qayta ishlash yo'llari va usullarining murakkab jarayonlarini o'zaro bog'liq, ketma-ket va aniq bajariladigan harakat, operatsiyalarga bo'lib, rejalashtirilgan natijaga erishish tasvir etiladi. Bu kengaytirilgan va ommaviy ishlab chiqarishga asos bo'ladi. Bizning davrda, [texnologiya deb](#), ma'lum ishni bajarish san'ati tushuniladi. Uni egallash uchun u aks ettirilgan texnologik hujjatlarni chuqur o'rganish taqozo etiladi.

"Texnologiya"ning fan sifatida shakllanishi, texnologiyani ko'paytirish va shu asosda mutaxassislarni ommaviy tayyorlash, hamda ommaviy ishlab chiqarishni tashkil etish imkoniyatini keltirib chiqardi.

Texnologiya deganda sub'ekt tomonidan ob'ektga ko'rsatilgan ta'sir natijasida ob'ektda sifat o'zgarishiga olib keluvchi jarayon tushuniladi. Texnologiya har doim zaruriy vositalar va sharoitlardan foydalanib, ob'ektga yo'naltirilgan maqsadli amallarni muayyan ketma-ketlikda bajarishni ko'zda tutadi.

Ushbu tushunchalarni o'quv jarayoniga ko'chiradigan bo'lsak, o'qituvchi (pedagog)ning o'qitish vositalari yordamida o'quvchi (o'quvchi)larga muayyan sharoitlarda ko'rsatgan tizimli ta'siri natijasida ularda jamiyat uchun zarur bo'lgan va oldindan belgilangan ijtimoiy sifatlarni intensiv tarzda shakllantiruvchi ijtimoiy xodisa, deb ta'riflash mumkin.

Texnik texnologiya quyidagilarni bildiradi:

xom-ashyo, materiallar, yarim fabrikatlar yoki mahsulotlarni olish, ularga ishlov berish yoki qayta ishlash yo'lari va usullarining yig'indisi (texnologiyaning jarayonli - bayonli aspekti); jarayonning o'zi - qazib olish, to'ish, ishlov berish, qayta ishlash, tashish, omborga joylash, saqlash hamda ishlab chiqarishni texnik nazorat qilish (texnologiyaning jarayonli - harakat as'ekti).

Ishlab chiqarishda "Texnologiya" so'zidan kelib chiqadigan quyidagitushunchalar ishlatiladi:

Texnologik jarayon - ishlab chiqariladigan mahsulotga ishlov berishning yagona jarayonini hosil qiluvchi texnologik operatsiyalarning yig'indisi.

Texnologik operatsiya - ishchi tomonidan o'zining ish joyidabajariladigan, yakuniga yetkazilgan harakat ko'rinishidagi [jarayonning bir qismi](#)

Texnologik xarita - ma'lum bir mahsulotni ishlab chiqarish texnologik operatsiyalarning ketma-ketligini bayon qiluvchi texnik hujjat.

Texnologik reja - texnologik operatsiyalarni amalga oshirishni belgilovchi tartib bo'lib, ma'lum bir mahsulotni ishlab chiqarishda bajariladigan operatsiyalarning vaqti, shartlarini belgilaydi.

5. Texnologiya- texnologiya ta'limifani konsepsiyasini amaliyotga joriy etishning shart-sharoitlari.

Konsepsiyani amaliyotga tatbiq etish quyidagi ilmiy, metodik, tashkiliy va moddiy-texnik shart-sharoitlarni amalga oshirishni talab etadi:

Texnologiya fanini o'qitishda uzluksiz ta'lim tizimining (uzluksizlik va uzviylik) tamoyillariga qat'iy rioya qilish.

Tayanch va umumta'lim maktablaridagi texnologiya fanining mazmuni, maqsadi va vazifalarini, tashkil etish shakllarini, metodlari va vositalarini zamonaviy talablar asosida takomillashtirish.

Ilmiy-'edagogik xodimlar, mutaxassis o'qituvchilar, murabbiy- tarbiyachilar tayyorlash tizimini takomillashtirish.

Texnologiya fani o'qituvchilarini tayyorlashni takomillashtirish konse'siyasini ishlab chiqish va amaliyotga tadbiq qilish.

Texnologiya fani o'qituvchilarining malakasini oshirish va qayta tayyorlash konsepsiyasini ishlab chiqish; texnologiya va kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlash, malaka oshirish va qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish.

Texnologiya fani davlat ta'lim standartini o'quvchilarning jismoniy va ruhiy rivojlanish qobiliyatlariga mos holda ishlab chiqilishi, uni namunaviy o'quv dasturlari, o'quv qo'llanmalari, darsliklar va turli ilmiy-uslubiy ishlanmalar majmualari bilan ta'minlash.

Texnologiya fanining moddiy-texnik ta'minotini jamiyat taraqqiyoti talablaridan kelib chiqib mustahkamlash.

Texnologiya fanini o'qitishni takomillashtirish maqsadida umumta'lim va boshqa ta'lim-tarbiya muassasalari, viloyat, tuman xalq ta'limi bo'limlari, Respublika ta'lim markazi, Xalq ta'limi [vazirligi](#), Respublika Fanlar akademiyasi, ilmiy-tadqiqot institutlari, oliy o'quv

yurtlarining tegishli.

kafedralarida olib borilayotgan nazariy va amaliy tadqiqot ishlarini tizimlashtirish, uyg'unlashtirish, markazlashtirish va muvofiqlashtirish.;

Texnologiya fanini o'qitishda Respublikamiz umumta'lim maktablari va xorijiy mamlakatlarda erishilgan ilg'or tajribalarini o'rganish hamda amaliyotga qo'llashda Respublikaning ta'lim sohasidagi siyosati talablari hamda mahalliy, milliy, etnik, hududiy xususiyatlarni hisobga olish;

Texnologiya fanini o'qitishni yanada takomillashtirish maqsadida me'yoriy, metodik xujjatlar, zaruriy nizomlar, yo'riqnomalarni ilg'or tajribalar asosida tayyorlash va tashkiliy tadbirlarni hozirgi zamon talablaridan kelib chiqib, yagona markazlashtirilgan holda umumdavlat miqyosida joriy etish;

Iqtidorli yoshlarni kasb-hunar o'rganishga bo'lgan qiziqishlariga ko'ra kasbiy mahorat darajalarini rivojlantirishga sharoit yaratish.

Nazorat savollari:

1. Texnik texnologiya haqida tushuncha bering?
2. Texnologiya fani haqida tushuncha bering?
3. fanning uzluksiz ta'limi deganda nimani tushunasiz?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Harakatlar strategiyasini «Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturining 172-bandida «Ta'lim to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonunining yangi tahrirdagi loixasi. Texnologiya fanini o'qitish metodikasi va uning vazilasi. Ta'lim sohasidagi islohotlar.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoyevning 2019 yilning 19 mart kuni Yoshlarga e'tiborni kuchaytirish, [yosh avlodni madaniyat](#), san'at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularda axborot texnologiyalaridan to'g'ri foydalanish ko'nikmasini shakllantirish, yoshlar o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish bo'yicha beshta tashabbusi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Texnologiya darsliklaridan
2. "Xalq so'zi" gazetasi
3. Elektiron resuslar.
4. N.M.Hamdama S.I.Baxtiyorova Sh.I. Bahronova "Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar"
5. Hamdamova Nozima Mukimovna Baxtiyorova Sobiraxon Ixtiyor qizi «ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ» Xalqaro ilmiy jurnal. -2023.- T. 1.